



TA'LIMDA MUOMILA MADANYATINING O'RNI

Jumamurodova U.M.

Ilmiy rahbar: "TIQXMMI" MTU "Professional ta'lim" kafedراسi assistenti

Xatamjonov B.E.

"TIQXMMI" MTU "Yer resurslari va kadastr" fakulteti, Professional ta'lim(yer kadastru va yer tuzish) yo'nalishi 214- guruh talabasi.

Tayanch so'zlar: pedagogik madaniyat, kasbiy pedagogik qobilyatlar, muomila madaniyati, ta'lim tarbiya, muloqot tasirchanligi, ta'limiy-axloqiy qarashlar, zamonaviy ta'lim.

Ключевые слова: педагогическая культура, профессиональное педагогическое мастерство, культура общения, образование, эффективность коммуникации, образовательно-этические взгляды, современное образование.

Key words: pedagogical culture, professional pedagogical skills, communication culture, education, communication efficiency, educational and ethical views, modern education.

Резюме:

Ushbu maqolaning asosiy mazmuni shundan iboratki o'qituvchi va o'quvchining bir biriga bo'lgan muomila madaniyati, psixologik bilimlar, ko'nikma va qobilyatlarni ochib berdik. Zamonaviy ta'limda odobning muloqotga tasiri va pedagogning muloqoti haqida so'z yuritamiz.

Резюме:

Основное содержание данной статьи состоит в том, что мы раскрыли культуру, психологические знания, умения и навыки учителей и учащихся. В современном образовании мы говорим о влиянии манер на общение и общение учителя.

Summary:

The main content of this article is that we have revealed the culture, psychological knowledge, skills and abilities of teachers and students. In modern education, we talk about the influence of manners on communication and communication of the teacher

Bugungi kunga kelib ta'limda muomila madaniyati o'qituvchining o'quvchi bilan hamkorligi asos deb qaralib, muomila madaniyati qonunyatlaru va psixologik bilim ko'nikmalarni egallashi mumkin. O'qituvchi o'quvchi bilan hamkorlik faolyatiga samarali kirisha olsa, shaxshni shakillantirishning maqsadi va vazifalariga javob beruvchi o'zaro ta'sir, o'zaro tushunuvni yo'lga qoysa ta'limda pedagogik muomila vujudga keladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining hamkorlik jarayonida o'zaro axborot almashinuvi va kommunikativ vositalar yordamida o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro ta'sir va o'zaro



munosabatlarni tashkil etadi. Muomila madanyati deganda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro tasir o'tkazish malakasi, ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir qilish o'z ichiga oladi. ta'limda muomila madanyati muhim ahamyatga ega bolib, uning asosiy vazifalari, axborot almashinuvi, o'zaro bir birini idrok qilishini ko'rishimiz mumkin. O'qituvchini fikri o'zgartirilganda o'quvchi qanday qabul qilayotganligini anglab turish, uzr so'rash hamda ta'lim jarayonida muomila madanyatini ushlab turadi. Shu o'rinda ta'limda muomila madanyatining ta'sirchanligi masalasini muhim ekanligini yoddan chiqarish yaramaydi. Bu masalaning ildizi, ta'bir joiz bolsa, kaliti o'z o'zidan pedagogning kommunikativ kompetensiyasiga borib bog'lanadi. Chuqur bilimga ega bo'lsa-yu o'z bilimini ongu shuuriga sindirish mexanizimini egalagan bo'lsa, ta'lim tizimida sifat, samara va natija bo'lishi mumkinmi? Boshqacha qilib aytganda samarali muloqot yexnologiyasiva texnikasi o'zlashtirilmagan o'qituvchi o'quvchini ana shu maqsadga tayorlay olmasligi aniq. Chunki ta'lim olgangina ta'lim bera oladi, tarbiyalangan odamgina tarbiyalay olishi ayni haqiqat. Pedagogika fanlar doktori, professor Abdinazar Nurmonovning doktorli dissertatsiyasi xudi shu mavzuda. Ular asosan, talabalarni muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayorlanishning pedagogik imkoniyatlari borasida xulosalar chiqazganlar. Vaholanki, achiq bo'sa ham ochiq aytish kerakki pedagoglarning aksariyati ham ana shu talabaga muhtoj. Muomila madaniyati bo'yicha mualliflik dasturi misolida oliy ta'lim muassasalari talabalarini samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayorlanishning lokal moduli texnologiyasi ishlab chiqilib tadbiiq etilgan.

Hozirgi kunga kelib, Oliy ta'lim muassasalarida pedagogning mahoratini belgilovchi mezonlarida biri uning muloqot va muomila ma'danyatidir. Bilamizki ta'limda qanchalik bilim va saviyaga ega bo'lmang muloqot ma'danyatingiz bo'masa, bari harakatingiz behuda. Ta'limda muloqot ma'danyatingiz ibratli bo'lmasa, bari harakatingiz behuda. Ta'limda muomila ma'danyati o'zaro suhbat va fikr almashuvlarda namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchi muloqoti, asosan quydagi ko'rinishda bo'ladi. 1. O'quvchi va talabalar bilan muloqoti. 2. Ota-onalar bilan muloqoti. 3. Hamkasblar bilan muloqoti. Rahbariyat bilan muloqoti. Ta'limda muomila ma'danyati to'rtovida ham bir xil yo'sinda bo'lmasligi mumkin. Mavzu va mazmun-mohiyati bilan ularning ohangi va suhbat tarzi o'zgacha bo'ladi. Bularning birinchisi pedagogning muloqot madanyatini to'la ko'rsatadi, qolganlari asosan, o'quvchi va talabaning axloqi hamda bilim darajasi, o'zlashtirishlar bilan bog'liq masalalar borasidagi muloqot ehtiyojidir. O'qituvchining o'zi subyekt bo'lsa, o'quvchi yoki talaba obyektidir.

Demak, subyekt va obyekt orasidagi munosabatlar ta'lim va tarbiya vositasi asosida quriladi. Pedagogning kommunikativ layoqatida so'z orqali ta'sir o'tkazish odatda, og'zaki va yozma tarzda bo'ladi. Og'zaki tarzda bo'loshi ko'proq qulay va samara berishi tayin. Chunki, buning zamirida muloqot va muomila madanyati ham bo'y ko'rsatadi. O'quvchiga ba'zan muloqotga ko'ngil azobini namoyon etish to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy ro'l o'ynashni ham bilishi kerak. Tasodifiy pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganida, tushkun bir ahvolga tushganida ichki his-tuyg'ularini bir holatdan boshqa holatda, bir shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan o'tkazishni ham bilishi kerak. Hozirgi kunda ishtimoiy turmushdagi katta yutuqlar bilan bir qatorda shaxslararo munosabatlarda til odobi va muomila madanyatida buzilishlar davom etmoqda, o'zbek tilining musaffoligi aniq va lo'ndaligi, oxangdorligi, muomila jarayonida o'z ifodasini topa olmayabdi. Natijada o'zgartirilayotgan fikrlarni bildirilayotgan mulohazalarni idrok etish, qabul qilishni qiyinlashmoqda.

Misol tariqasida bir oliy ta'lim muassasasidagi o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot jarayonidan parcha keltiramiz:

O'qituvchi: hozir sanlar matanalizdan chiqdinglarmi?

Talaba: yo'q, teoriya fizikadan chiqdim .

O'qituvchi: unday bo'lsa, ertaga birinchi parani teoroya beroyatnosti qilamiz, osnovi ekanomidan ruhsad oldim; osnovi ekonomika o'rnida teoriya veroyanosti bo'laveradi boshqa etajda.

Nutqqa nisbatan bunday munosabatni ona tili go'zalliklari, yani so'zlari bilan almashtirilib, so'ng ularni "tarjima" qilsak, uning sofligi, tiniq va musaffoligini buzgan jummalarni notog'ri talaffuz qilgan muloqotdoshlarning xaqiqiy qiyofasi namoyon boladi. Mana, ular nima deyishmoqchi:" Hozir senlar "Matematik tahlil" fani darsidan chiqdinglarmi? Yo'q, "Nazariy fizika" fanidan chiqdik". Unday bo'lsa ertaga birinchi parani "Ehtimollar nazariyasi" darsi qilamiz, "Iqtisod assoaslari" o'qituvchisidan ruhsat oldim. Uning o'rniga bosjqqa qavatda "Ehtimollar nazariyasi" darsi bo'laveradi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy ta'limda qatiq nazorat va adolatli boshqaruvni talab qiladi. Har qanday talaba o'z qadiryatlarini unutmagan holda har bir pedagog bilan muomila madanyatini to'g'ri qoyishi lozim, pedagog esa o'z ruhiy hissiyotini boshqara olishi zarur. O'quvchilar bilan muloqot paytida nohush holatda o'zini idora eta olishi talab qilinadi. Sharqona tarbiyada ustoz va shogirtlik an'anasi taraqqiyotning tantasi ekanligini ishora qiuvchi hikmatlar talaygina. Ular o'rtasidagi muloqotda axloq va bilim boshqacha aytganda, xulqiy va muomila madanyati muhimligi e'tirof etilgan.



Adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son qarori bilan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni.

2. “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 йil 26 sentyabrdagi PK- 3289-son qarori

4. Дилрабо Мукумова Инатовна. Севара Ярова Баходировна. Педагогические нормы в системе непрерывного профессионального образования. Intellectual education technological solutions and innovative digital tools/ International scientific-online conference/ Part 7/ 2022 - AUGUST 13.

5. R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007

6. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil

7. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil

8. M.Ochilov. Muallim qalb me‘mori. O‘quv qo‘llanma Toshkent O‘qituvchi 2004-yil.

9. www.eduportal.uz -Xalq ta’lim vazirligining axborot ta’lim portal.

10. www.ziyonet.uz – Axborot ta’lim portal.